



# **BUXORO VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI**

Izoh: 2024-yil yanvar-dekabr hamda 2025-yil 1- yanvar holatiga ma'lumotlar dastlabki, qolgan davrlar bo'yicha yakuniy ma'lumotlar keltirilgan.



## BUXORO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI


2025- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

**Demografiya statistikasi** – ijtimoiy-iqtisodiy statistikaning sohalaridan biri bo'lib, aholi soni, tarkibi, aholi yoki uning guruhlari joylashuvi va takror hosil bo'lishi bilan bog'liq ma'lumotlarni statistik usullardan foydalangan holda yig'ish, qayta ishlash, ifodalash va tahlil qilish faoliyati bilan shug'ullanadi;

Buxoro viloyatida 2025- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni **2077,0 ming kishini** tashkil etib, yil boshigan **33 ming kishiga** yoki **1,6 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **765,8 ming kishini** (jami aholi sonidagi ulushi **36,9 %**), qishloq aholisi soni **1 311,2 ming kishi** (**63,1 %**)ni tashkil etdi.




**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turgan, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi;

**Doimiy aholi soni****2 077,0** *ming kishi***Tabiiy o'sish****+36,5** *ming kishi***Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi***2025- yil 1- yanvar holatiga***Shahar****36,9%****Qishloq****63,1%****Doimiy aholi sonining taqsimlanishi***2025- yil 1- yanvar holatiga***Erkaklar****50,1%****1 041,6** *ming kishi***Ayollar****49,9%****1035,4** *ming kishi*

## Buxoro viloyati hududlari bo'yicha doimiy aholi soni


2025- yil 1- yanvar holatiga

### Hududlar kesimida doimiy aholi soni, ming kishi



Hududlar bo'yicha doimiy aholisi soni eng ko'p G'ijduvon tumanida **327,5** ming kishi, Buxoro shahrida **300,2** ming kishi, Jondor tumanida **188,8** ming kishi, eng kam aholi soni Qorovulbozor tumanida **20,3** ming kishi, Kogon shahrida **65,5** ming kishi va Kogon tumanida **86,3** ming kishini tashkil etgan.

### Doimiy aholisi soni eng ko'p bo'lgan shahar/shaharchalar



Doimiy aholisi soni eng ko'p Buxoro shahrida **300,2** ming kishi, Kogon shahrida **65,3** ming kishi, G'ijduvon shahrida **51,0** ming kishi, Qorako'l shahrida esa **26,1** ming kishi va Vobkent shahrida **20,9** ming kishini tashkil etgan.

### Doimiy aholisi soni eng kam bo'lgan shahar/shaharchalar



Doimiy aholisi soni eng kam O'zbekiston shaharchasida **2,5** ming kishi, Qirtay shaharchasida **2,5** ming kishi, Mahallai-Mirishkor shaharchasida **2,5** ming kishi, G'ulomte shaharchasida **2,6** ming kishi va Kosari shaharchasida **2,6** ming kishi.

## Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2024- yil 1- yanvar holatiga



75,2 yosh




78,5 yosh

2024-yilning 1-yanvar holatiga Buxoro viloyati aholisining kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **76,8** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **75,2** yoshga, ayollar uchun esa **78,5** yoshga teng. Shahar joylar **76,1** uchun yoshni va qishloq joylarida **76,9** kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi tashkil etgan.

*Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi – tug‘ilgan (0 yoshdagi) insonlarning kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish yillari soni. Bunda ushbu ko‘rsatkich hisoblangan yildagi yoshlar bo‘yicha o‘lim darajasi saqlanib qoladi deb hisoblanadi;*


## Aholi sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

2025- yil 1- yanvar holatiga



2025- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, viloyat doimiy aholisi sonining **29,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,8 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **13,5 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

*Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni – Mehnat Kodeksiga muvofiq 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollardan tashkil topadi (16 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 60 yosh va undan katta erkaklar hamda 55 yosh va undan katta ayollar mehnatga layoqatli yoshdan kattalar toifalariga ajratiladi);*

**Buxoro viloyati bo'yicha aholi zichligi***2025- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi*

Buxoro viloyatida 2025- yil 1- yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **51,6** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **1,0** kishiga ortgan (2023- yilda 1 kv.km.ga **50,6** kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligini eng yuqori ko'rsatkichi Buxoro shahrida **4 120,8** kishi, Kogon shahrida **4267,1** kishi, Vobkent tumanida **518,6** kishi, Kogon tumanida **171,1** kishini, Buxoro tumanida **137,6** kishi tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Qorovulbozor tumanida **9,2** kishi, Peshku tumanida **15,3** kishi, Qorako'l tumanida **20,1** kishi, Olot tumanida **32,8** kishi, Jondor tumanida **36,5** kishi, Shofirkon tumanida **50,7** kishini tashkil etgan.

*Aholi zichligi – muayyan hududdagi doimiy aholining umumiy sonini shu hudud maydoniga nisbati orqali aniqlanadi;*

## Buxoro viloyati hududlari bo'yicha qayd etilgan tug'ilishlar

2024- yil yanvar- dekabr

### Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti, kishi



Hududlar bo'yicha tug'ilish eng yuqori Buxoro shahrida **7 724** kishi, G'ijduvon tumanida **7 219** kishi, Jondor tumanida **4 408** kishi, eng kam ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida **354** kishi, Kogon shahrida **1 154** kishi va Kogon tumanida **2 067** kishini tashkil etgan.

### Tug'ilish koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan shahar/tumanlar



Tug'ilish koeffitsiyenti eng yuqori Buxoro shahrida **24,3** promille, Vobkent va Kogon tumanlarida **24,2** promille, G'ijduvon tumanida **23,8** promille va Jondor tumanida **23,5** promilleni tashkil etgan.

### Tug'ilish koeffitsiyenti eng past bo'lgan shahar/tumanlar




Tug'ilish koeffitsiyenti eng kam tuman, shaharlardan Qorovulbozor tumanida **17,6** promille, Kogon shahrida **17,7** promille, Shofirkon tumanida **18,1** promille, Romitan tumanida **19,1** promille va Buxoro tumanida **21,4** promilleni tashkil etgan.

## Buxoro viloyatida tirik tug‘ilganlar


2024- yil yanvar- dekabr

Yillar bo‘yicha taqsimlanishi,  
ming kishi



2021 y. 2022 y. 2023 y. 2024 y.

O‘shish sur‘ati,  
% da



2021 y. 2022 y. 2023 y. 2024 y.

Jinslar kesimida taqsimlanishi

### O‘g‘il bolalar



51,8 %

23,8

ming kishi

### Qiz bolalar



48,2 %

22,3

ming kishi

Shahar va qishloq joylar  
bo‘yicha taqsimlanishi

### Shahar



38,6 %

17,8

ming kishi

### Qishloq



61,4 %

28,3

ming kishi

2024- yil yanvar- dekabr oylarida tirik tug‘ilganlar soni **46,1** ming kishini tashkil etdi, shundan o‘g‘il bolalar soni **23,8** ming kishini, qiz bolalar soni **22,3** ming kishi, tug‘ilganlar soni shahar joylarida **17,8** ming kishini, qishloq joylarida **28,3** ming kishini tashkil etdi.

Tug‘ilganlarning taqsimlanishi,  
kishi/ulushi

### O‘g‘il bolalar



51,4 %

4 886

### Qiz bolalar



48,6 %

4 623

#### Yanvar-mart

#### Yanvar-iyun



51,7 %

10 246

48,3 %



9 580

#### Yanvar-sentabr



51,6 %

17 538

48,4 %



16 425

#### Yanvar-dekabr



51,8 %

23 846


48,2 %




22 221

Hisobot choragida eng ko‘p qayd etilgan tug‘ilishlar soni sentabr oyida qayd etilgan **5 022** nafar bo‘lib, aksincha, eng kam tug‘ilishlar esa fevral oyida **2 976** nafar qayd etilgan.



**Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi***2024- yil yanvar- dekabr*

2024- yilning yanvar - dekabr oylarida qayd etilgan egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi: 1 nafar tug‘ilganlar **97,5 %** ni 2 nafar egizak tug‘ilganlar **2,4 %** ni 3 nafar va undan ortiq egizak tug‘ilganlar **0,1 %** ni tashkil etdi.


**Ota-onasining yoshi bo‘yicha tug‘ilganlarning taqsimlanishi***2024- yil yanvar- dekabr*

2024- yil yanvar-dekabr oylarida tug‘ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo‘yicha **12,6 %** chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **82,3 %** ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **5,1 %** chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, tug‘ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo‘yicha **38,6 %** chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **60,2 %** ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **1,2 %** chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo‘lgan.

## Buxoro viloyati hududlari bo'yicha qayd etilgan o'limlar

2024- yil yanvar-dekabr

### Hududlar kesimida o'limlar soni va koeffitsiyenti, kishi



Hududlar bo'yicha vafot etishi eng yuqori G'ijduvon tumanida **1 647** kishi, Buxoro shahrida **1 563** kishi, Shofirkon tumatida **882** kishi va Jondor tumanida **749** kishi, eng kam ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida **60** kishi, Kogon shahrida **334** kishi va Kogon tumatida **481** kishini tashkil etgan.

### O'lim koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan shahar/tumanlar



O'lim koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan Kogon tumanida **5,6** promille, Buxoro shahrida va Olot tumanda **5,3** promille, Kogon shahri va G'ijduvon tumanda **5,1** promilleni tashkil etgan.

### O'lim koeffitsiyenti eng past bo'lgan shahar/tumanlar




O'lim koeffitsiyenti eng kam bo'lgan Qorovulbozor tumanida **3,0** promille, Romitan tumanida **3,5** promille, Jondor va Vobkent tumanlarida **4,0** promilleni, Qorako'l tumanida **4,4** promilleni tashkil etgan.


## Buxoro viloyati bo'yicha qayd etilgan o'limlar

2024- yil yanvar- dekabr

Yillar bo'yicha taqsimlanishi,  
ming kishi




O'sish sur'ati,  
% da




Jinslar kesimida taqsimlanishi

**Erkaklar**




**Ayollar**



Shahar va qishloq joylar  
bo'yicha taqsimlanishi

**Shahar**



**Qishloq**



2024- yil yanvar-dekabr oylarida vafot etganlar soni **9,6** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **5,2** ming kishini, ayollar soni **4,4** ming kishi, vafot etganlar soni shahar joylarida **4,3** ming kishini, qishloq joylarida **5,3** ming kishini tashkil etdi.

Vafot etganlarning taqsimlanishi,  
kishi/ulushi

**Erkaklar**



**Ayollar**



Yanvar-mart

Yanvar-iyun



Yanvar-sentabr



Yanvar-dekabr





Hisobot choragida eng ko'p qayd etilgan vafot etganlar soni avgust oyida qayd etilgan **1 274** nafar bo'lib, aksincha, eng kam vafot etganlar esa yanvar oyida **666** nafar qayd etilgan.

## O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar- dekabr, kishi

*O‘lim sabablari* – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari;




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **65,3 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **11,1 %** i – o‘simtalardan, **4,6 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **5,0 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,1 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **0,7 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, **10,2 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

## Buxoro viloyati hududlarida qayd etilgan nikohlar


2024- yil yanvar- dekabr

### Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti, birlik



Hududlar bo'yicha nikohlar soni eng yuqori Buxoro shahrida 2 306 kishi, G'ijduvon tumanida 2 271 kishi, Buxoro tumanida 1 245 kishi, eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 120 kishi, Kogon shahrida 345 kishi va Kogon tumanida 660 kishini tashkil etgan.

### Nikoh koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan shahar/tumanlar



Nikoh koeffitsiyenti bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Olot tumanida 8,3 promille, Buxoro shahrida 7,8 promille, Kogon va Peshku tumanlarida 7,7 promille, Qorako'l tumanda 7,6 promilleni tashkil etgan.

### O'lim koeffitsiyenti eng past bo'lgan shahar/tumanlar




Nikoh koeffitsiyenti bo'yicha eng past ko'rsatkich Kogon shahrida 5,3 promille, Qorovulbozor tumani 6,0 promille, Romitan tumanida 6,4 promille, Buxoro tumanida 6,9 promille va G'ijduvon tumanida 7,0 promilleni tashkil etgan.


## Buxoro viloyatida qayd etilgan nikohlar

2024- yil yanvar- dekabr

Yillar bo'yicha taqsimlanishi,  
ming birlik




O'sish sur'ati,  
% da




2024- yil yanvar- dekabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **14,9** ming birlikni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **0,8** birlikka kamaygan. Har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,3** promilleni tashkil etgan hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan **0,5** promillega kamayganligi kuzatildi.

Nikohlarning taqsimlanishi,  
birlik/ulushi



Shahar va qishloq joylar  
bo'yicha taqsimlanishi




2024- yil yanvar-dekabr oylarida nikoh qurganlarning soni **14,9** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **5,9** mingtani (**39,6 %**), qishloq joylarida **9,0** mingtani (**60,4 %**) tashkil etdi.

Hisobot choragida eng ko'p qayd etilgan nikoh qurganlar soni dekabr oyida **1691** nafar aksincha, eng kam nikoh qurganlar esa aprel oyida **846** nafarni tashkil etgan.

## Buxoro viloyati hududlari bo'yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar

2024- yil yanvar- dekabr

### Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti, birlik



Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlarning soni eng yuqori Buxoro shahrida **608** kishi, G'ijduvon tumanida **328** kishi, Shofirkon tumanida **186** kishi, eng kam ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida **20** kishi, Romitan tumanida **103** kishi va Kogon shahrida **108** kishini tashkil etgan.

### Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan shahar/tumanlar



Nikohdan ajralish koeffitsiyenti bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Buxoro shahrida **2,0** promille, Kogon shahrida **1,7** promille, Kogon tumanida **1,2** promille, Olot va Buxoro tumanlarida **1,1** promilleni tashkil etgan.

### Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng past bo'lgan shahar/tumanlar




Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng past bo'lgan Romitan va Jondor tumanlarida **0,7** promille, Qorako'l va Peshku tumanlarida **0,9** promille, Qorovulbozor tumanlarida **1,0** promilleni tashkil etgan.

## Buxoro viloyati bo'yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar

2024- yil yanvar-dekabr


Yillar bo'yicha taqsimlanishi,  
ming birlik



2021 y. 2022 y. 2023 y. 2024 y.


2024- yil yanvar-dekabr oylarida 2,3 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,1 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-dekabr oylarida 1,2 promille bo'lgan).

Shahar va qishloq joylar  
bo'yicha taqsimlanishi




2024- yil yanvar-dekabr oylarida nikohdan ajralishlarni soni 2,3 mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida 1,3 mingtani, (55,7 %), qishloq joylarida 1,0 mingtani (44,3 %) tashkil etdi.

O'sish sur'ati,  
% da



2021 y. 2022 y. 2023 y. 2024 y.

Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi,  
birlik/ulushi




Hisobot choragida eng ko'p qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni may oyida 218 nafar aksincha, eng kam nikohdan ajralishlar esa iyun oyida 147 nafarni tashkil etgan.



## Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-dekabr



2024- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda jami nikohdan ajrashganlarning **45,9 %** i farzandsiz, **28,1 %** i bitta farzand bilan va **26,0 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

## Nikohdan ajrashganlarning o'rtacha yoshi




Nikohdan ajrashganlarning o'rtacha yoshi 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida erkaklar uchun **36,0** yoshni, ayollar uchun **33,0** yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi **29** yoshlilarga to'g'ri kelgan, y'ani jami nikohdan ajrashganlarning **5,8 %** ini tashkil etgan.

**Buxoro viloyati bo'yicha jami ko'chib kelganlar**

2024- yil yanvar-dekabr

**Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti, kishi**



Hududlar bo'yicha ko'chib kelish eng yuqori Buxoro shahrida **3 015** kishi, Buxoro tumanida **1 456** kishi, G'ijduvon tumanida **874** kishi, eng kam ko'rsatkich Olot tumanida **175** kishi Peshku tumanida **218** kishi, va Romitan tumanida **230** kishini tashkil etgan.

**Ko'chib kelish koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan shahar/tumanlar**



Ko'chib kelish koeffitsiyenti eng yuqori Qorovulbozor tumani **19,9** promille, Kogon tumani **10,2** promille, Buxoro shahri **10,1** promille, Kogon shahri **9,5** promille va Buxoro tumani **8,1** promilleni tashkil etgan.

**Ko'chib kelish koeffitsiyenti eng past bo'lgan shahar/tumanlar**




Ko'chib kelish koeffitsiyenti eng kam bo'lgan Qorako'l tumani **1,3** promille, Romitan tumani **1,5** promille, Peshku tumani **1,6** promille va Olot tumani **1,8** promilleni tashkil etgan.

## Buxoro viloyati bo'yicha jami ko'chib kelganlar


2024- yil yanvar-dekabr

Yillar bo'yicha taqsimlanishi,  
ming kishi



2021 y. 2022 y. 2023 y. 2024 y.


O'sish sur'ati,  
% da




2021 y. 2022 y. 2023 y. 2024 y.

Jinslar kesimida taqsimlanishi

### Erkaklar




### Ayollar




Shahar va qishloq joylar  
bo'yicha taqsimlanishi

### Shahar



### Qishloq



2024- yil yanvar-dekabr oylarida ko'chib kelganlar soni **9,3** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **3,9** ming kishini, ayollar soni **5,4** ming kishi, ko'chib kelganlar soni shahar joylarida **5,4** ming kishini, qishloq joylarida **3,9** ming kishini tashkil etdi.

Ko'chib kelganlarning taqsimlanishi,  
kishi/ulushi


### Erkaklar




### Ayollar




#### Yanvar-mart



#### Yanvar-iyun



#### Yanvar-sentabr




#### Yanvar-dekabr

Hisobot choragida eng ko'p qayd etilgan ko'chib kelganlar soni avgust oyida **1 079** nafar aksincha, eng kam ko'chib kelganlar esa mart oyida **613** nafarni tashkil qilgan.

## Buxoro viloyati hududlari bo'yicha jami ko'chib ketganlar

2024- yil yanvar- dekabr

### Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti, kishi



Hududlar bo'yicha ko'chib ketish eng yuqori Buxoro shahrida **3 028** kishi, G'ijduvon tumanida **1993** kishi, Shofirkon tumanida **1 285** kishi, eng kam ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida **262** kishi, Peshku tumanida **396** kishi va Olot tumanida **489** kishini tashkil etgan.

### Ko'chib ketish koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan shahar/tumanlar



Ko'chib ketish koeffitsiyenti eng yuqori Qorovulbozor tumani **13,0** promille, Buxoro shahri **10,2** promille, Kogon shahri **9,6** promille, Kogon tumani **8,3** promille va Shofirkon tumani **6,9** promilleni tashkil etgan.

### Ko'chib ketish koeffitsiyenti eng past bo'lgan shahar/tumanlar




Ko'chib ketish koeffitsiyenti eng past Peshku tumani **3,0** promille, Romitan tumani **3,3** promille, Jondor tumanni **3,7** promille, Olot tumani **4,7** promille va Qorako'l tumani **5,0** promilleni tashkil etgan.

## Buxoro viloyati hududlari bo'yicha jami ko'chib ketganlar


2024- yil yanvar-dekabr

Yillar bo'yicha taqsimlanishi,  
ming kishi



2021 y. 2022 y. 2023 y. 2024 y.

O'sish sur'ati,  
% da



2021 y. 2022 y. 2023 y. 2024 y.

Jinslar kesimida taqsimlanishi

**Erkaklar**



45,6 %

5,8

ming kishi

**Ayollar**



54,4%

7,0

ming kishi

Shahar va qishloq joylar  
bo'yicha taqsimlanishi

**Shahar**



53,9 %

6,9

ming kishi

**Qishloq**



46,1 %

5,9

ming kishi

2024- yil yanvar-dekabr oylarida ko'chib ketganlar soni **12,8** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **5,8** ming kishini, ayollar soni **7,0** ming kishi, ko'chib ketganlar soni shahar joylarida **6,9** ming kishini, qishloq joylarida **5,9** ming kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlarning taqsimlanishi,  
kishi/ulushi

**Erkaklar**



Yanvar-mart  
46,7 %

1 411

**Ayollar**



53,3 %

1 609

Yanvar-iyun



46,7 %

2 831



53,3 %

3 225

Yanvar-sentabr



45,5 %

4 362



54,5 %

5 225

Yanvar-dekabr



45,6 %

5 835



54,4 %

6 966

Hisobot choragida eng ko'p qayd etilgan ko'chib ketganlar soni avgust oyida **1 425** nafar aksincha, eng kam ko'chib ketganlar esa fevral oyida **824** nafarni tashkil etgan.

**Doimiy aholi** – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘limi**

*Tel: 71 230-83-16, 65 223-83-37*